

## INVESTITSIYA MUHITI

**Qodirova Xilolaxon Mamadolimovna**

Magistrant, Baholash ishi va investitsiyalar kafedrası, Toshkent Moliya Instituti

Toshkent, O'zbekiston. E-mail: [hilolaqodirova1234@gmail.com](mailto:hilolaqodirova1234@gmail.com)

ORCID:0000-0002-2229-7496

## THE INVESTMENT CLIMATE

**Kodirova Khilolakhon Mamadolimovna**

Master, Department of "Assessment and investments", Tashkent Finance Institute

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: [hilolaqodirova1234@gmail.com](mailto:hilolaqodirova1234@gmail.com)

ORCID:0000-0002-2229-7496

### **JEL Classification: D2, D25**

**Annotatsiya.** Bizga ma'lumki, "investitsiya" so'zining iqtisodiy mazmuni – kelajakda samaradorlikka erishish maqsadida hozir mavjud investitsiya resurslaridan foydalanib, ko'zlangan g'oyani amalga tadbiriq etishni bildiradi. Investitsiyani amalga oshirish jarayoni investitsiya faoliyatini hosil qiladi. Investitsiya faoliyatlari amalga oshishi uchun esa investitsiya muhiti zarur. Investitsiya jarayonida metodologik va texnologik yangilanish, ya'ni tanlab olingan tadbirkorlikni yangi metod va texnologiya bilan boshlash, yangidan boshlash yoki davom ettirish ro'y beradi. Bu faoliyatning amalga oshirilishi iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, ijtimoiy va huquqqiy hamda zarur bo'lganda ekologik sharoitlar mujassamlashgan investitsiya muhitiga bog'liq. Demak, investitsiya faoliyatlari sifatli va miqdoran rivojlanishi uchun avvalo investitsiya muhiti sifatli, qulay, majmuaviy va tizimli yo'l orqali takomillashtirilishi zarur. Bu yo'lda qabul qilinib amalga oshiriluvchi davlat dasturlari foydali natijalar bermoqda, tarmoqlar va sohalar samaradorligini oshirmoqda, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish uchun asos bo'lmoqda.

Investitsiya muhiti mavzusini atroflicha o'rganish hamda uning

dolzarbligi shundan iboratki, investitsion harakatlar tizimli bo'lishi talab etiladi. Shu sababli investitsiya muhitini oliy ta'limning magistratura bosqichidagi biznes va boshqaruv bilim sohasida o'quvchi talabalar fan sifatida o'rganishlari zarur.

Shuni ham e'tiborga olish muhimki, investitsiya muhiti nazariyasini yoritib beruvchi, uning ko'ptomonlama jihatlari tavsiflangan maxsus adabiyotlar, ya'ni investitsiya muhiti to'g'risidagi kitoblar kam. Vaholanki, investitsiya muhiti nazariyasi keng qamrovli bo'lib, u investitsiyalarni tashkil etish va boshqarish, investitsiya siyosati, korporativ boshqaruv, aholishunoslik, mehnat taqsimoti, xalqaro moliya munosabatlari, xalqaro moliya institutlari, loyihaviy moliyalashtirish, investitsiyalarni iqtisodiy baholash, jahon iqtisodiyoti, xalqaro pul-kredit munosabatlari, risklar menejmenti, sug'urta, loyiha muhiti, tadbirkorlik muhiti, investitsiya qonunchiligi, biznes yuritish, xalqaro biznes huquqi kabi nazariyalar bilan bog'liq.

Yuqoridagi masalalar doirasida ushbu maqolada investitsiya muhitining quyidagi tomonlari qisqacha yoritildi: investitsiya muhitining dolzarbligi, investitsiya muhitining mohiyatini ochib beruvchi ilmiy ta'riflar, investitsiya



*muhitining "tilla tuxum" modeli, investitsiya muhiti mexanizmi, investitsiya muhiti uchun investitsiya salohiyatining ahamiyati, investitsiya muhitining O'zbekiston qonunchiligi, investitsiya muhitining xalqaro qonunchiligi.*

**Abstract:** *We know that the economic content of the word "investment" refers to the implementation of the idea of using the current investment resources in order to obtain future profitability. The process of investing generates investment activities. The investment climate is necessary for investment activities to take place. In the investment process, methodological and technological renewal takes place, that is, starting, re-starting or continuing the chosen business with a new method and technology. The implementation of this activity depends on the investment climate, which includes economic, political, financial, social and legal and, if necessary, environmental conditions. Therefore, for the quality and quantitative development of investment activities, the investment climate is, first and foremost, improved in a good quality, convenient, basic and systematic way. Along this way government programs adopted and implemented are yielding useful results, are improving the efficiency of sectors of the economy, and are providing the basis for faster development of the country's economy.*

*A comprehensive study of the topic of the investment climate and its relevance are that investment actions are required to be systematic. Investment climate is a subject that students with bachelor's degrees in business and management should study at the master's level of higher education.*

*It is also important to note that there is few special literature or book on the investment climate that highlight the theory of investment climate and explain its multiplier aspects. However, the theory of*

*the investment climate is multifaceted, it is related with the theories such as organization and management of investments, investment policy, corporate governance, population studies, labour distribution, international financial relations, project financing, economic evaluation of investments, world economy, people's (international) monetary relations, risk management, insurance, project climate, business climate, investment legislation, doing business, international business rights.*

*Within the framework of the above issues, this article briefly describes the following aspects of the investment climate: the topicality of the investment climate, scientific definitions that reveal the essence of the investment climate, the "golden egg" model of the investment climate, the "fish skeleton" method of the investment climate mechanism, the importance of investment potential for the investment climate, Uzbekistan legislation of the investment climate, international legislation of the investment climate.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya muhiti, investitsiya muhitining "tilla tuxum" modeli, investitsiya muhiti mexanizmi, investimuhitnoma, investitsiya salohiyati, investitsiya muhiti qonunchiligi, investitsiya muhiti swot tahlili.*

**Keywords:** *investment climate, the "golden egg" model of the investment climate, investment climate mechanism, investment climate statement, investment potential, investment climate legislation, investment climate swot analysis.*

**Kirish.** *Mustaqil O'zbekiston - bu siyosiy barqarorlik; ertangi kunga bo'lgan ishonch; ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ekologik hayotning barcha sohalaridagi islohotlarning bosqichma-bosqich borishligiga asoslangan; jahonning ko'plab millat vakillari va o'nlab diniy konfessiyalar*

kelishib yashayotgan; o'z davlat boshqaruvi, Qurolli Kuchlari, moliya va pul-kredit tizimiga ega; jamiyat va tabiat boyliklarini muhofaza qilishda va ulardan foydalanish uchun sharoitlar yaratishda qonuniy prinsiplarga asoslangan davlatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida tasdiqlangan quyidagi moddalar respublikamiz iqtisodiyotini isloh qilib turish uchun, shu jumladan, investitsiya muhitini yaxshilash uchun mamlakat investitsiya salohiyatlaridan unumli foydalanish imkonini beradi:

"O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishini uchun sharoit yaratadi. O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan babbaravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarning umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir. O'zbekiston Respublikasi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, qishloqlar, ovullar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasidan iborat."

Bu va boshqa davlat miqyosidagi maqsadlarni ta'minlash yo'lida

prezidentlarimiz, davlat organlari va idoralari tomonidan mehmondo'st va mard xalqimiz bilan birgalikda mustaqillik yillaridan boshlab yurtimiz iqtisodiyotini bosqichma bosqich isloh qilish natijasida ko'plab yutuqlarga erishdik.

Ko'plab natijalarga erishilgan bo'lsada investitsiya muhitini muntazam yaxshilab turish davr talabidir, sababi aholi soni, uning ehtiyojlari, bu ehtiyojlarning turlari ko'payib, yangilanib boradi.

**Material va metod.** Investitsiya muhiti to'g'risida mamlakatimizdagi va boshqa davlatlardagi iqtisodchi olimlar va ilmiy tadqiqotchilar izlanishlar olib borishgan, o'z davriga mos va ilmiy-amaliy tasdig'ini topgan natijalarga erishishgan.

Jumladan, iqtisodchi olimlarimizdan Vahabov A., Hojibakiev Sh., Mo'minov N., G'ozibekov D., Qoraliyev T., Mamatov B., Shodiyeva D., Ataniyazov J., chet davlatlari iqtisodchilaridan - 11 - Royzman I., Gitman L., Druker P., Xiks Dj., Shumpeter Y., Anishin B., Bulichev G., Brodskiy M. va Kostenko S. larni keltirish mumkin.

Investitsiya muhiti iborasi investitsiya iqlimi iborasi bilan bir xil mazmun-mohiyatga ega. Ilmiy-tadqiqotlar investitsiya muhiti to'g'risidagi mualliflik ta'riflarning yillar davomida bu tushunchani to'liqroq ifodalab berganligini ko'rsatadi. Jumladan, O'zbekiston fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan namoyondalar mamlakatimiz mustaqilligi e'lon qilingan yildan boshlab investitsiya muhitiga ko'plab ta'riflar berishgan. Bu ta'riflarning ayrimlarini quyidagi jadvalda tarixiy-mantiqiy tartibda ko'rish mumkin.

Mualliflar	Investitsiya muhitiga berilgan ta'riflar
1-kitob. D. G'. G'ozibekov, T. M. Qoraliyev. Investitsiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. - T.: TMI, 1993yil. - B. 4.	Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi.

<p>2-kitob. A. V. Vahobov, Sh. X. Xajibaqiyev, N. G. Muminov Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.: "Moliya", <b>2010yil</b>. -B. 153.</p>	<p>Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatgich.</p>
<p>3-kitob. B. S. Mamatov, D. Yu. Xo'jamqulov, O. Sh. Nurbekov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. -T.: "IqtisodMoliya", <b>2014yil</b>. -B. 137</p>	<p>Investitsiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shartsharoitlar majmuasi tushuniladi.</p>
<p>3-kitob. B. S. Mamatov, D. Yu. Xo'jamqulov, O. Sh. Nurbekov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. -T.: "IqtisodMoliya", <b>2014yil</b>. -B. 140</p>	<p>Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqe'likdir.</p>
<p>3-kitob. B. S. Mamatov, D. Yu. Xo'jamqulov, O. Sh. Nurbekov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. -T.: "IqtisodMoliya", <b>2014yil</b>. -B. 144.</p>	<p>Investitsiya muhiti har qanday aniq vaqt uchun obyektiv bo'lib, kapital qo'yish uchun mavjud shart-sharoitlarning majmuasini o'zida qamrab olsa-da, biroq, davlat organlarining boshqarish organlari ta'sirida shakllanadi.</p>
<p>3-kitob. B. S. Mamatov, D. Yu. Xo'jamqulov, O. Sh. Nurbekov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. -T.: "IqtisodMoliya", <b>2014yil</b>. -B. 149.</p>	<p>Investitsiya muhiti investorlarning samarali va erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan muhit bo'lib, uning investorlar uchun qulayligi, jozibadorligi unga ta'sir etuvchi huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarning ta'sir darajasiga bevosita bog'liqdir.</p>
<p>4-kitob. L. S. Zoirov, Sh. Sh. Asamxodjayeva, S. B. Yunusova Investitsiya. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", <b>2019yil</b>. -B. 216-217.</p>	<p>Investitsiya muhiti tushunchasi o'zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. ... Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor firmasi va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi.</p>
<p>4-kitob. L. S. Zoirov, Sh. Sh. Asamxodjayeva, S. B. Yunusova Investitsiya. Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", <b>2019yil</b>. -B. 221.</p>	<p>"Investitsiya muhiti" atamasining aniq izohi yo'q. Jahon banki biznes va investitsiya muhitini firmalar uchun samarali investitsiya kiritishning, yangi ish o'rinlari yaratishning va ish faoliyatini kengaytirishning imkoniyatlari va rag'batlari sifatida ta'riflaydi.</p>

1-jadval. Investitsiya muhitiga ta'riflar va bu ta'riflar berilgan manbalar.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Muallifning ilmiy ishlanmasi

Rossiyalik iqtisodchi olimlar Brodskiy M., Kostenko C. larning tariflariga ko'ra: "Investitsiya muhiti – muayyan mamlakat yoki mintaqaning turli tarmoqlariga uzoq yoki o'rta muddatli investitsiyalarni samarali jalb qilish va o'zlashtirish uchun yaratilgan shart-sharoitlardir".

Xorijiy olimlar Rayzberg B., Lozovskiy L., Starodubtseva Ye. larning ta'rifiga ko'ra: "Investitsiya muhiti – bu mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan ichki va tashqi investitsiyalar oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy va moliyaviy shart-sharoitlardir."

**Natijalar.** XX asrdan boshlab ilmiy-tadqiqotchi olimlar fanda yangi, biz hozirda investitsiya muhiti deb bilgan "investitsiya iqlimi" iborasini yoqlab chiqdilar. Investitsiya iqlimi negizida aholi ehtiyojlari, hududlardagi mavjud va yangi paydo bo'luvchi ehtiyojlarni qondirish maqsadlarida yaratilgan tizimli investitsion faoliyatlar holatini ifodalovchi ko'rsatgichlar mavjud.

Ilmiy izlanishlar "investitsiya muhiti" tushunchasi to'g'risida ko'p qirrali nuqtai nazarlarni ifodalovchi quyidagi ta'riflarni<sup>2</sup> berdi: "Investitsiya muhiti – bu investitsiyalarni boshqarish nuqtai nazaridan investitsiya resurslari, investitsiya faoliyatlari, mahalliy aholining asosiy faoliyati va turmush tarzi, investitsiya siyosati va qonunchiligi, mahalliy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar, tarmoqlar va sohalar bo'yicha investitsiya salohiyatlari, hududlar iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning rivojlanganligi kabi me'zonlar asosida investitsiya faoliyatining ishtirokchilari yoki subyektlari tomonidan shakllantiriluvchi, nazorat qilinuvchi va tartibga solinuvchi iqtisodiy-ijtimoiy tizimdir. Investitsiya muhiti – bu


mikro nuqtai nazardan ham, makro nuqtai nazardan ham, ijobiy iqtisodiy-ijtimoiy tizimni shakllantirish yo'lida muqobil tanlab olingan investitsiya g'oyalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan zarur moddiy va nomoddiy chora va tadbirlar natijalarining majmuidir. Investitsiya muhiti – bu obyektiv hujjat nuqtai nazaridan mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va me'yoriy-huquqiy hamda ekologik ko'rsatgichlarini bayon qiluvchi hujjat shaklidir. Uni "Investmuhitnoma" deb atash mumkin. Investitsiya muhiti – bu investor nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini o'zida aks ettiruvchi oyna bo'lib, unda tadbirklik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur ma'lumotlar jamlangan bo'lishi va ular joriy holatda "joylarda va joyida" amal qilishi kerak. Investitsiya muhiti – bu bir qarashda infratuzilmaning mavjudligi va investitsiya resurslari miqdorida ko'ringandek go'yo, biroq ilmiy-amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, investitsiya muhiti keng qamrovli hayotiy voqe'lik bo'lib, u infratuzilma mavjudligi bilan birga uning qamrov darajasi va sifati; mahalliy demografik va geografik xususiyatlar; mehnat kuchi soni va tajriba-malakaviy sifati; investitsiyalar qonunchiligi doirasida me'yoriy huquqiy tartiblar va ularga joylarda amal qilinishi; tabiiy resurslar miqdori va sifati, ekologiya va atrof-muhit sharoitlari; hududlardagi agrar ishlab chiqarish, sanoat, xizmat ko'rsatish, savdo va iste'mol hajmlari; ma'muriy-hududiy va institutsional boshqaruv tartiblari, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatlari ko'lami va imkoniyatlari; moliyaviy imkoniyatlar: pul-kredit, valyuta, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq munosabatlarning hajmlari; soliq bo'yicha tartiblar va imkoniyatlar; xalqaro munosabatlar hajmlari va ko'lami kabi ko'rsatgichlarni qamrab oluvchi va ularning

<sup>2</sup> Muallif ta'riflari

jamg'arilgan, joriy va kelajak holatini aks ettiruvchi ko'p qirrali natijalardir."

Ilmiy nazariyada investitsiya muhitini shakllantiruvchilar yoki tashkil qiluvchilar yoinki boshqacha aytganda

investitsiya muhiti shakllanishida bevosita va bilvosita qatnashuvchi vositachilar va vositalar investitsiya muhitining elementlari deb aytiladi (1-rasm).



**1-rasm. Investitsiya muhitini shakllantiruvchi elementlar tasvirlangan "tilla tuxum" modeli.<sup>3</sup>**

<sup>3</sup> Muallifning ilmiy ishlanmasi

Har bir mamlakatda investitsiya muhiti muammolarini yechish uchun maxsus mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan mexanizmlar amal qiladi. Investitsiya muhiti mexanizmining ishlashi uchun amaliyotda mamlakat investitsiya muhiti elementlari yagona tizim tarkibida joriy qilinadi.

Investitsiya muhiti mexanizmi - bu belgilangan iqtisodiy hududda investitsiya muhiti elementlarining bir nechasi yoki hammasi bevosita va bilvosita bog'liqlikda ishlaydigan harakatlar majmuidir.<sup>4</sup>

Investitsiya muhiti mexanizmini yuritishdan maqsad joylarda investitsiya muhiti muammosiga yechim topish va investitsiya faoliyatlari doimiy amalga oshuvchi qulay tadbirkorlik va loyiha muhitlarini shakllantirishdan iborat.

**Munozara.** Amaliyotda investitsiya muhitining obyektiga e'tibor berilgan holda investitsiyalar va investitsiya faoliyatlari amalga oshiriladi. Investitsiya muhitining obyekti ma'lum bir iqtisodiy hudud holatidan iborat bo'ladi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ko'rib chiqiladigan iqtisodiy hudud holati investitsiya muhitining obyekti deyiladi.<sup>5</sup>

Investitsiya muhiti obyektining xususiyatlarini baholovchi ko'rsatgichlar investitsiya muhitining ko'rsatgichlaridir. Mamlakat investitsiya muhitining tarmoqlar va sohalar bo'yicha quyidagi mezonlar asosida sifat va miqdor ko'rsatgichlaridan iborat tavsilotlarini jamlab, uni investmuhitnoma deb atash mumkin<sup>6</sup> va bunday investmuhitnoma oddiy hisobotdan farq qiladi:

Ishlab chiqarish tarmoqlari  
- yoqilg'i-energetika sanoati

- metallurgiya sanoati
- kimyo sanoati
- farmatseftika sanoati
- meditsina sanoati
- maishiy-texnika sanoati
- avtomobil sanoati
- zahira qismlar sanoati
- agrar sanoat
- oziq-ovqat sanoati
- tarmoqqa tegishli boshqaruv-nazorat muassasalari
- Qurilish tarmoqlari
- turarjoy (aholi yashash joylari) qurilishi
- noturarjoy qurilishi
- Infratuzilma sohalari
- transport va avtoyo'llar xizmatlari
- toza ichimlik suvi va suvoqava xo'jaliklari
- elektr va issiqlik ta'minoti xizmatlari
- aloqa (axborot texnologiyalari) xizmatlari
- mahalliy boshqaruv muassasalari xizmati
- maorif xizmatlari
- sog'liqni saqlash xizmatlari
- bank xizmatlari
- bozor infratuzilmasi
- korxonalar infratuzilmasi
- tarmoq ishlab chiqarish infratuzilmasi
- hududiy infratuzilma boshqaruvi
- Ta'lim sohasi
- xalq ta'limi muassasalari
- maktabgacha va maktab ta'limi
- oliy ta'lim
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim
- Sog'liqni saqlash sohasi
- mahalliy statsionar oilaviy poliklinikalar (bular har bir QFY va MFY ichidagi birinchi va tez tibbiy yordam punktlari)
- xususiy klinikalar
- turli yo'nalishlar bo'yicha shifoxonalar
- sog'liqni saqlash boshqaruvi muassasalari
- Turizm sohasi
- biznes turizmi
- sanatoriyalar
- istirohat bog'lari

<sup>4</sup> Muallif ta'rifi

<sup>5</sup> Muallif ta'rifi

<sup>6</sup> Muallifning ilmiy ishlanmasi

- qo'riqxonalar turizmi
- tarix turizmi
- sohil turizmi
- sohaga tegishli boshqaruv-nazorat muassasalari
- Moliya sohasi
- Markaziy bank va tijorat banklari
- nobank tashkilotlar va turli moliya institutlari
- moliya va soliq boshqaruvi muassasalari
- Tijorat sohasi
- yakka tartibdagi tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes
- hududiy va markaziy bozorlar
- sohaga tegishli boshqaruv-nazorat muassasalari.

Tanlab olingan alohida maxsus soha uchun ham investitsiya muhitini bayon qilish mumkin. Masalan, "O'zbekistonda turistik joy yaratish uchun investitsiya muhiti qanday?". Bu savolga javob berish uchun mezonlarni belgilaymiz.<sup>7</sup>

- Mahalliy sharoit ko'rsatgichlari (bular: geografik, ekologik, demografik, etnik-madaniy, institutsional boshqaruv ko'rsatgichlari)
- Infratuzilmaviy sharoit ko'rsatgichlari (bular: transport, toza ichimlik suvi va suvoqava, aloqa, energiya manbalari yo'llarining qamrovi, hajmi va sifati)
- Investitsion bozor konyukturasi ko'rsatgichlari (bular: investitsiya kirituvchilar va qabul qiluvchilarning soni, ularning harakat doirasi va darajasi)
- Xalqaro munosabatlar rivojlanganligi (bular: O'zbekiston hamkorlik qiluvchi davlatlar va xalqaro tashkilotlarning ro'yxati va ularning asosiy xususiyatlari)
- Turizm faoliyati bilan bog'liq O'zbekiston qonunchiligi (bular: investitsiyalar, turizm, tadbirkorlik, mulk va garov to'g'risidagi

qonunchilik, turizm faoliyati uchun soliq stavkalari va b.)

- Turizm faoliyati uchun investitsiya siyosati (bular: davlat kafolatlari va rag'batlari)

E'tibor berib ilg'agan bo'lsangiz, investitsiyalar dunyosi ko'p yo'nalishli bo'lgani uchun investitsiya muhiti

- makro
- mikro
- ko'p tarmoqli
- bir tarmoqli

shakllarda bayon qilinishi mumkin. Har qanday yo'nalishda ham investitsiya muhitini ochiqlab berish uchun aynan tanlangan yo'nalish doirasidagi tajribali mutaxassislarning jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir. Tajribali mutaxassislar investitsiya salohiyatlaridan unumli foydalanishning ko'plab yo'llarini sharhlab berishi mumkin.

Tanlab olingan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun investitsiya muhitini shakllantirishda bu faoliyat uchun zarur va eng yaqin investitsiya salohiyatlarining kuch-quvvatlaridan foydalaniladi va shu orqali investitsiya salohiyatlarining investitsiya muhitida tutgan o'rni belgilanadi. Misol uchun katta suv havzalaridan uzoqda joylashgan hududlarda, masalan Shveysariya yoki O'zbekistonda kemachilik va okean sohili turizmini barpo etish mantiqan tog'ri tanlov hisoblanmaydi. Yana bir misol, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarida turli kimyoviy ishlab chiqarish zavod va fabrikalarini joylashtirib bo'lmaydi, sababi bunday agrosanoat unumdor yerlari ko'p yillar davomida yaratiladi va yerning yuqori unumdorligiga erishish ham ko'p vaqt talab qiladi. Bundan ko'rinadiki hududlarda investitsiya muhitini shakllantirish tanlab olingan joyning tabiiy va yaratilgan investitsiya kuch-quvvati va

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi



imkoniyatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Investitsiya salohiyati – bu mavjud tabiiy quvvatlar va bu quvvatlardan foydalanib yaratilgan va kelajakda yaratilishi mumkin bo'lgan investitsiya kuch-quvvatlari hamda ularning imkoniyatlaridir.<sup>8</sup>

Investitsiya salohiyati ham keng qamrovli bo'lib, uning ko'lami tasniflanish bilan belgilanadi. Ilmiy nazariyada har biri tegishli bir nechta investitsiya salohiyatlarining turlarini qamrab oluvchi quyidagi investitsiya salohiyatlarining guruhlarini farqlanadi (2-jadval):

- Iqtisodiy guruh,
- Mablag' guruhi,
- Ijtimoiy guruh.

2-jadval. Investitsiya salohiyatlari tasnifi.<sup>9</sup>

Investitsiya muhitini investitsiya salohiyatidan farqlash zarur: investitsiya muhiti zamirida investitsiya faoliyati uchun shakllantirilgan yetarli sharoit tushunilsa, investitsiya salohiyatlari zamirida tabiiy mavjud va inson tomonidan yaratilgan investitsiya kuch-quvvatlari va ularning imkoniyatlari tushuniladi.<sup>10</sup>

Investitsiya salohiyatining shunchaki bor bo'lishi investorlarning va investitsiya faoliyatlarining doimiy va barqaror harakatini ta'minlay olmaydi. "Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali "hazm qilinmagan" bo'yluk hisoblanadi." Shuning uchun ham mamlakat iqtisodiyotida

#### Investitsiya salohiyatlarining iqtisodiy guruhiga kiruvchi turlari

- |                               |                              |
|-------------------------------|------------------------------|
| * Tabiiy resurs salohiyati    | * Infratuzilma salohiyati    |
| * Mehnat salohiyati           | * Boshqaruv salohiyati       |
| * Ishlab chiqarish salohiyati | * Tashqi iqtisodiy salohiyat |

#### Investitsiya salohiyatlarining mablag' guruhiga kiruvchi turlari

- |                      |  |
|----------------------|--|
| * Byudjet salohiyati | * Nobank salohiyat                     |
| * Soliq salohiyati   | * Investitsion integratsiya salohiyati |
| * Bank salohiyati    | * Iste'mol salohiyati                  |

#### Investitsiya salohiyatlarining ijtimoiy guruhiga kiruvchi turlari

- |                            |                         |
|----------------------------|-------------------------|
| * Demografik salohiyat     | * Innovatsion salohiyat |
| * Ilmiy salohiyat          | * Huquqiy salohiyat     |
| * Institutsional salohiyat | * Ekologik salohiyat    |

<sup>8</sup> Muallif ta'rifi

<sup>9</sup> Muallifning ilmiy ishlanmasi

<sup>10</sup> Muallif ta'rifi

investitsiya muhiti tizimi amal qiladi va mamlakat investitsiya muhitining menejmentiga vakolatli davlat idoralari investitsiya muhitini muntazam nazoratlar orqali tartibga solinishini ta'minlaydi.

Jumladan, "Investitsiya muhitining O'zbekiston qonunchiligi qaysi davrdan boshlandi?" savoliga javob izlab ko'raylik.

O'zbekiston davlati 1924 yil 5 dekabrda tashkil qilingan bo'lsada, mamlakat o'z investitsiya muhitini boshqarish imkoniga ega bo'lmagan va shuning uchun investitsiya muhitining O'zbekiston qonunchiligi 1991 yil – mustaqil O'zbekiston Respublikasi e'lon qilingan yildan boshlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi jamiyat va hukumat uchun bosh huquqiy asos bo'lib, u mamlakatda yashash va mehnat qilish qulay bo'lishi uchun xizmat qiladi. Konstitutsiyaning asosan 4-, 8-, 17- va 18-moddalari, IX, XII va XVI boblari va V bo'limi mamlakatda yaxshi investitsiya muhitini shakllantirish uchun ham bosh asosdir.

Umuman ilmiy nazariyada, konstitutsiya investitsiya salohiyatlarining ijtimoiy guruhiga mansub huquqiy salohiyat turiga kiradi. Undan unumli foydalanish mamlakat fuqarolari uchun ham ko'p tomonlama manfaatlar va samaralar keltiradi.

O'zbekistonda 1991 yildan chet el investorlari bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yilishi munosabati bilan investitsiya muhiti shakllanishi uchun dastlabki qonunchiliklar yaratilgan edi. Ular mamlakat rivojlanib borgani sari iqtisodiy yangilanishga moslab o'zgartirilgan, takomillahstirilib yangidan qabul qilingan. Bugungi kunda O'zbekiston investitsiya muhiti quyidagi asosiy qonunchiliklar asosida tartibga solinadi:

- O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598 son bilan qabul qilingan Qonuni, 25.12.2019 sanada qabul qilinib, 27.01.2020 sanadan kuchga kiritilgan, va bu qonun asosidagi qonun osti me'yoriy hujjatlar;

- O'zbekiston Respublikasining Kodekslari: mehnat, soliq, byudjet, iqtisodiy protsessual, shaharsozlik, yer, fuqarolik, havo, bojxona, uy-joy kodeksi. 2022 yilda tadbirkorlik kodeksining loyihasi ham ishlab chiqildi;

- investitsiya faoliyati bilan bog'liq boshqa qonunchiliklar.

Investitsiya muhitining xalqaro qonunchiligi nimalarda ko'rinadi?

Investitsiya faoliyatlari xalqlar orasida faollashib va rivojlanib borgani sari xalqaro investitsiya muhitini shakllantiruvchi asoslar joriy qilina boshlandi. Bu harakatlar XX asrga tug'ri keldi va bu yillarda xalqaro investitsiya muhitini shakllantirgan va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi xalqaro huquqiy normalar joriy qilinib, ular asosida xalqaro tashkilotlar tashkil qilindi.

Investitsiya muhitining xalqaro qonunchiligi – bu xalqaro huquqiy normalar belgilangan xalqaro hujjatlar tarkibida ko'rinuvchi va quyidagi xalqaro muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar harakati va ularga tegishli qonunchilik hujjatlaridan iborat huquqiy me'yorlar majmuidir: <sup>11</sup>

- inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948 yil);

- xalqaro investitsiya huquqlari belgilangan milliy rejimlar, ya'ni har bir iqtisodiy hududga tegishli va xos bo'lgan qonunchilik hujjatlarida belgilangan xalqaro huquqlar;

- xalqaro tashkilotlar: Xalqaro hisob-kitoblar banki (XHKB, 1930yil); Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT, 1941yil); Xalqaro valyuta fondi (XVF,

<sup>11</sup> Muallif ta'rifi

1944yil); Jahon banki guruhi: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB, 1944 yil), Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK, 1956 yil), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA, 1960 yil), Investition bahslarni hal qilish bo'yicha xalqaro markaz (IBHXM, 1966 yil), Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (IKKA, 1988 yil); Yevropa investitsiyalar banki (YeIB, 1958 yil), Yevropa rivojlanish fondi (YeRF, 1958 yil); Mintaqaviy rivojlanish banklari: Amerika rivojlanish banki (ARB, 1959 yil), Osiyo taraqqiyot banki (OTB, 1966 yil), Afrika rivojlanish banki (AfRB, 1963 yil), Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB, 1990 yil); Tariflar va savdo bo'yicha Bosh kelishuv harakati ("GAAT", 1947 yil), Jahon savdo tashkiloti (JST, 1995 yil); Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti ("NATO", 1949 yil); Neftni eksport qiluvchi davlatlar tashkiloti ("OPEK", 1960 yil); Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari uyushmasi ("ASEAN", 1967 yil); Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT, 2001 yil); har bir davlatning investitsiyalar va xalqaro munosabatlariga vakolatli organlari.

**Xulosa.** Xulosa qilinganda, mavjud investitsiya salohiyatlaridan foydalanib investitsiya faoliyatlarini amalga oshirish uchun investitsiya muhiti zarur. Bu mavzuni atroflicha o'rganish hamda uning dolzarbligi ham investitsion harakatlarning tizimli va faol bo'lishi bilan belgilanadi. Mamlakatning bunday tizimi uchun maxsus bilimlarga ega kadrlar kerak. Bu yo'lda oliy ta'limning biznes va boshqaruv bilim sohasida ta'lim oluvchi bakalavriat bosqichi talabalariga "Infratuzilmaviy investitsiyalar", "Investitsiya loyihalariga xizmat ko'rsatish",

"Investitsiya salohiyatlari va loyiha muhiti", "Tadbirkorlik muhiti" fanlari dars mashg'ulotlari, magistratura bosqichi talabalariga "Investitsiya muhiti nazariyasi" va oliy ta'limdan keying ta'lim bosqichidagi doktorantlarga "Investitsiya muhitini yaxshilash metodologiyasi" fani dars mashg'ulotlari o'qitilishi maqsadga muvofiq.

Amaliyotda tadbirkorlik muhiti va loyiha muhirlari asosida yaxshilanuvchi investitsiya muhitini tahlillar qilish orqali rivojlantirish asoslari belgilanadi. Shuni e'tiborga olib, investitsiya muhiti nazariyasi ustida ilmiy izlanishlar olib borish natijasida qilingan swot tahlil investitsiya muhiti to'g'risidagi quyidagi xulosalarni shakllantirdi:

Kuchli tomonlari mavjud bo'lib, ularga investitsiya muhitida birdan ortiq yuridik shaxslarning birgalikda harakatlanishi va ko'p tomonlama hamkorligi; turli investitsiya resurslarining mavjudligi; risklarni taqsimlash va pasaytirish usullarining amal qilishi; zarur investitsiyalar, investitsiya faoliyatlari va boshqa faoliyatlarni amalga oshirish uchun davlat kafolatlari, qonuniy asoslar, davlat-xususiy sheriklik kelishuvlari; investitsiyalarni amalga oshirish uchun mahalliy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar mavjudligi; investitsiya muhitidan foydalanib tadbirkorlik muhiti yordamida loyiha muhtida jamg'arilgan investitsiya salohiyatlari; mikrohududda ham makrohududda ham investitsiya muhitida biznes yuritishning osonligi; yuqori makroiqtisodiy ko'rsatgichlar darajalari; yirik xalqaro va milliy korporativ tuzilmalarning ko'payishi, ko'p yo'nalishlarda xalqaro integratsiya rivojlanishi kiradi.

Kuchsiz tomonlari mavjud bo'lib, ularga ijtimoiy ahamiyatga ega investitsiyalar uchun zarur shart-sharoitlarning

yaratilishiga uzoq vaqt talab qilinishi; investitsiya resurslarining taqchilligi davrida qarz majburiyatlarining ko'payishi, loyihalar hayotiylik davrining barcha bosqichlarida kutilmagan risklarning paydo bolish ehtimoli; loyihaviy moliyalashtiriladigan yirik loyihalarning to'liq quvvatda ekspluatatsiyaga kiringunigacha birdan ortiq yillar, yetuk mutaxassislar va katta hajmli smeta va qurilish ishlari talab qilinishi; tabiat o'zgarishlariga chidamlilik va ayrim hollarda buning oqibatlarini o'nglash ko'p vaqt talab qilishi; investitsiya salohiyatlarining kamligi; hududdagu ekologik va epidemic muammo, qoniqarsiz makroiqtisodiy ko'rsatgichlar mavjudligi; xalqaro sanksiyalar va embargolar joriy qilinganligi kiradi.

Imkoniyatli tomonlari mavjud bo'lib, ularga innovatsion bilim, loyiha va mahsulotlar yaratish; turli investitsiya resurslarini jamg'arish; risklarni taqsimlash va pasaytirish orqali erishiladigan barqarorlik va sug'urta; davlat tomondan rag'bat, imtiyoz va maxsus soliqlar berilishi; mahalliy va infratuzilmaviy shart-sharoitlar doirasida turli investitsiya loyihalarini

amalga oshira bilish; investitsiya salohiyatlaridan unumli foydalana olish; muvaffaqiyatli loyihalarni hududdan hududga transformatsiya qila olish; katta hajmli axborotlarni makroiqtisodiy va ekonometrik modellashtirish orqali ixchamlashtirib tushunarli bo'lishini ta'minlash; muqobil loyihalar doirasida chet el mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishish kiradi.

Tahdidli tomonlar mavjud bo'lib, ularga investitsiya muhiti uchun xavf soluvchi terroristik, qo'poruvchilik, buzg'unchilik va boshqa jinoiy harakatlar; foydali tabiiy resurslarning kutilmagan tabiat o'zgarishlari natijasida keskin kamayib ketishi; fors-major risklarning ommaviy ro'y berishi; surunkali siyosiy tazyiq, byurokratiyaning kuchayib ketishi; geografik joy uchun tortishuvlar; investitsiya salohiyatlariga turli yo'llar bilan hujumlar; hududlarda iqtisodiy tanglik yoki tanazzul kelib chiqishi; makroiqtisodiy ko'rsatgichlarni sun'iy oshirish yoki kamaytirish ortidan paydo bo'luvchi kutilmagan zararlar; xalqaro munosabatlarda turli diskriminatsiyalarga yo'l qo'yish kiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 2021 yilgi tahriri.
2. Mamatov B. S., Xujamqulov D. Yu., Nurbekov O. Sh. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. Toshkent-"Iqtisod-Moliya"-2014. 608b.
3. Zoirov L.S., Asamxodjayeveva Sh.Sh., Yunusova S.B. Investitsiya. Darslik, Toshkent: "Iqtisod-Moliya" 2019. 652b.
4. Ataniyazov J. X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2020. 612b.
5. Bakiyeva I.A. Qulay investitsion muhit shakllantirish va unga ta'sir etuvchi omillar. // "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali "Xorijiy va mahalliy investitsiyalar" rukni. – Toshkent, 2019 – №4.
6. Qodirova H. M. Investitsiya muhitini yaxshilashda mamlakat investitsiya salohiyatidan unumli foydalanish masalalari. //Dissertatsiya oldi dastlabki taqdimot – Toshkent – 2022. 61s.
7. <https://www.lex.uz>
8. <https://www.uz.m.wikipedia.org>